

GILAMNING ASOSIY ELEMENTLARI TAHLILI

Hamadullayeva N I

Dotsent

Yusupova N B

Professor

Siddiqov P S

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

Annotatsiya: Maqolada gilam mahsulotlariga kompozitsion naqsh ornamentlari bilan bezak bеришда asosiy elementlarini taхлили кўриб chiqilgan. Шунингдек, мақолада гилам маҳсулотларига композицион нақш орнаментларини беришда миллий нақш орнаментларининг ўзига хос томонлари ёритилган.

Tayanch so'zlar: Нақш, gilam, композиция, хунармандчилик, ранг.

O'zbekiston xalq hunarmandchiligida alohida o'rin tutuvchi gilamdo'zlik san'ati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, o'zining nafisligi, rang-barangligi va naqshlarining murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu an'ana uzoq vaqt davomida shakllangan, rivojlangan va O'zbekiston madaniyatining muhim qismiga aylangan. Gilamlar nafaqat uy ro'zg'ori uchun, balki turli maqsadlarda, xususan, diniy marosimlarda, to'y va boshqa bayramlarda keng qo'llanilgan.

Gilam o'zbek xalqi uchun muhim va ramziy maishiy buyumdur. Uning obrazi ko'plab sharq ertaklari va afsonalarida tasvirlangan, qahramonlar sehrli sehrli gilamda havoda harakatlanadi. Sharqda gilamga munosabat juda hurmatli. "Uy gilam yoyilgan yerdan boshlanadi" – deyishni o'zbeklar yaxshi ko'radilar va ularning azaldan butun umri shu tamoyilga to'g'ri keladi. Gilam oiladagi boylik va farovonlik ramzidir. Bejiz emas, yoshlar baxtli va boy yashashlarini tilab, ularga to'y uchun gilam sovg'a qilinadi. U bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajaradi - devorlarni bezatadi, oyoq ostidagi iltiqlikni saqlaydi, ko'zni quvontiradi, o'ziga xos sharqona lazzat yaratadi va daraxtlar soyasida ayvonga yoyilgan, tabiat bag'ridagi dam olish maskaniga aylanadi.


Har bir hududning o'ziga xos gilam naqshlari va uslubi mavjud bo'lib, bu ular o'rtasidagi tafovutni aks ettirgan. Masalan, Samarqand va Buxoro gilamlarining ranglari o'ziga xos yorqin bo'lib, o'ymakor naqshlar bilan to'ldirilgan bo'lsa, Xiva gilamlarida mozaik shakllar, geometrik chizmalar va jiddiy ranglar ko'proq uchraydi.

O'zbek gilamdo'zligida naqshlar juda muhim ahamiyatga ega. Naqshlar nafaqat estetik ko'rinish, balki ma'lum bir ma'no ham ifodalaydi. Har bir naqsh, rang tanlovi va shakl o'zining ma'lum ma'nosiga ega bo'lib, u o'zbek xalqining qadimiy dunyoqarashi, e'tiqodi va hayot tarzini aks ettiradi. Gilam naqshlarida uchraydigan asosiy elementlar quyidagilar:

Gul naqshlari — ko'pincha tabiatdan ilhomlangan bu naqshlar hayotni, go'zallikni va unumdorlikni ramzlaydi. Ko'plab o'zbek gilamlarida gul naqshlari ko'p qatlamli va murakkab tuzilishga ega bo'lib, ular naqshlarni yanada nafis va jozibador ko'rsatadi.

Geometrik shakllar — ko'plab gilamlarda aylana, kvadrat, uchburchak va boshqa geometrik shakllar keng qo'llanadi. Bu shakllar qadimgi zamonlardan buyon ishlatilgan bo'lib, ular barqarorlik, tartib va uyg'unlikni ifodalaydi.

Hayvonot dunyosi naqshlari — ba'zi gilamlarning naqshlarida qo'chqor, tuya va qushlar tasviri uchraydi. Bunday naqshlar o'zbek xalqining tabiatga bo'lgan hurmatini va uni qadrlashini ifodalaydi. Masalan, qo'chqor shoxining tasviri kuch-quvvat va jasoratni bildiradi.



Burchak qavslari
Asosiy chegara bezagi
Medalyon
Tashqari chegara bezagi
Ichkari chegara bezagi

Naqshdagi har bir naqsh va timsol gilamlarda badiiy naqshlar yaratuvchi odamlarning hayoti, dunyoqarashi va idrokiga oid ulkan ma'lumotlar tashuvchisi bo'lgan. Ba'zi belgilar va belgilarning kombinatsiyasi ko'rinishidagi bezaklar dastlabki ma'noga ega bo'lib, dekorativ-amaliy san'at buyumlarida sehrli belgi sifatida tasvirlangan bo'lsa, bora-bora o'zining asl ma'nosini yo'qotgan.

Albatta naqsh kompozitsiyalarida rang tuslarining ham alohida o'rni bor. Naqsh elementlari, bezaklar va turli tuman shakllar, kompozitsiya qonuniyatlaridan tashqari uni bo'yashda qo'llaniladigan bo'yoq turlari va ularning o'ziga hos xususiyatlari, rang tuslari, rang koloriti, ranglarning hamohangligi va shu kabidar muhim ahamiyatga ega. Agarda biz halk hunarmand ustalari tomonidan ishlangan naqsh namunalarini kuzatadigan bo'lsak, ularning u yoki bu rang tuslari ta'siriga, ya'ni rang koloritiga bo'ysundirilganligini ko'ramiz. Shunga ko'ra jigar rang, havo rang, yashil rang va shu kabi ranglar muhitiga o'ralgan naqsh va naqsh kompozitsiyalari yaratiladi.

Sharqiy halqlarning gilamlariga bezak berish kompozitsiyasi bazaviy elementlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda, avval ko'plab xomaki ishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o'rnini almashtirish, qo'shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilar ham muhim ahamiyatga ega. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyada bir butunlikni, element, shakl, ranglarning takrorlanishi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo'lgan rang tuslarining ma'lum bir koloritga bo'ysundurishdan iborat. Kompozitsiya tuzishda simmetriya, ritm, markaz topish stilizatsiya, muvozanat kabi qonuniyatlarga amal kilinadi. Shuningdek, naqsh namunalarini tuzishda yana kompozitsiyaning quyidagi asosiy qonuniyatlariga rioya qilish kerak:

- chiziladigan naqsh kompozitsiyasini shakl, o'lcham va taqsimlarini mo'ljalga olish;
- kompozitsiyaning yakka yoki qo'sh baddan iborat bo'lishligini nazarda tutgan holda yasovchi elementi shakllarini joylashtirish;
- kompozitsiyaga novda, barg, gul, shobarg va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish;
- naqsh bandini elementlari bilan boyitish;
- kompozitsiyaning asosiy shakli (ramkasini) umumlashtirib va shu naqshni nomlash.

Kompozitsiyalarini tuzish simmetrik joylashuv va ranglar muttanosibligini saqlash naqsh chizish jarayonida naqsh elementlari va shakllarning o'q chizig'iga nisbatan teng ravishda joylashuvi, rang tuslarining bir - biriga muvofiq ravishda naqsh sirtiga yoyilishi, turli gullar, novdalar va shu kabi shakllarning uzviy ritmik jihatdan bog'lanishi va shu kabilardan iboratdir. Naqsh kompozitsiyalarini tuzish orqali tabiat go'zalligini chuqurroq his etib, simmetriya va assimetriya, ritm kabi qoidalar hakida tushunchalar yanada mustahkamlanadi.

Simmetriya - tenglikni anglatib, elementlariining bir o'q chiziq markazi atrofida bir xil o'lchamda joylashib, bir butun ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi. Gilam naqsh bezaklari ichiga chizilgan hoshiya naqsh lari simmetrik rapport tarzida davriy (ya'ni ritmik) takrorlanib keladi. Ritm naqsh elementlariining ma'lum tartib va oraliqda uzluksiz takrorlanib kelishini bildiradi.

Assimetriya qoiuni simmetriyaning aynan teskarisi bo'lib, kompozisiyaning muvozanat konuniga amal kilinmay naksh elementlaridagi dinamik harakatni ifodalaydi. Bunda naqsh elementlari o'q chizig'i va markaz kabi shartli belgilariga rioya qilinmagan holda joylashtiriladi.



Halq amaliy san'atida har qanday tasvir va rang ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan. Shuningdek, ularda aks etgan ramzlar, tasvirlar, elementlarda ifodalangan kishilarning tabiat hodisalari haqidagi murakkab dunyoqarashini aks ettirgan.

An'anaviy o'zbek naqshlarini milliy kashtalarda, yog'och o'ymakorligida, sopol buyumlar, milliy matolarda, binolardagi mozaikalarda uchratish mumkin. Naqsh turlari bezak elementlariga qarab ajratiladi:



- geometrik nuqta, chiziq va shakllardan iborat naqshlar;
- o'simlik barglari, gullari, mevalaridan iborat naqshlar;
- zoomorf, ya'ni hayvonlarning rasmlari aks etgan naqshlar.

Gilamchilik buyumlarida ko'pincha anor guli va mevalari – anorgul, bodom guli – bodomgul, garmdori – qalampir nusxa, daraxt barglari – barg va paxta naqshlari uchraydi.

Bezaklar tabiat hodisalar to'g'risidagi ramzlarning unutilgan jihatlarini vaqtlar o'tishi bilan o'zida saqlab qoluvchi xususiyatga ham ega bo'ladi. Bu shakl va semantik tasvirlar

o'zida shu qadar ko'p axborotni jamlaydiki, vaqti kelib ularni tavsiflash va tasvirlash kerak bo'ladi. Amaliy bezak san'atida ham tasvirlangan naqshlar shunchaki shakl bo'lib qolmasdan, balki muhim etnografik manbalardan biri ham sanaladi. Ushbu naqshlar xalqning diniy va dunyoviy tasavvurlari, e'tiqodlari bilan bevosita bog'liqdir.

Zoomorf naqshlar o'z ichiga haqiqiy yoki xayoliy jonivorlarning uslubiy tasvirini oladi (bunday naqshlar odatda, "yovvoyi" uslub deb ham nomlanadi). Zoomorf naqshlarni ayniqsa, to'qimachilik buyumlarida ko'p uchratish mumkin.

Tadqiqot bu naqsh elementlarini saqlab qolish va ularni zamonaviy san'at va dizayn sohasida qo'llash bo'yicha yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Milliy madaniyatni targ'ib qilishda bu merosdan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. Mehnat. Toshkent. 1991. –b. 334-335.
2. N.B.Yusupova «Gilam ishlab chiqarish texnologiyasi va badiiy bezash» Darslik-T.: «Fan ziyosi», 2023 yil, 530 bet.
3. P.S. Siddiqov, N.B.Yusupova, D.G.Aliyeva, N.R.Sodiqova, V.J.Murodov, D.T.Nazarova «To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari». T.: «FAN ZIYOSI», 2022. 295 b.
- 4.Yusupova N.B., Xamraeva S.A. The Importance of the extension tool in reducing the inequality of yarn //The American of Journal Engineering and Technology, 2020, 5.32, 39-44.